

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000


<b>1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna</b> TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
<b>2. Yusupova Soxiba Islombek qizi</b> O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
<b>3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna</b> GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
<b>4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat</b> HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
<b>5. Намазова Манзура Ураковна</b> ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
<b>6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna</b> AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
<b>7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich</b> THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
<b>8. Karimova Dilorom Shavkatovna</b> VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
<b>9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna</b> CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
<b>10. Шахзод Турниязов</b> ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
<b>11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
<b>12. Алена Ялмагиевна Иванова</b> ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
<b>13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna</b> EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
<b>14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</b> O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
<b>15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi</b> PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
<b>16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи</b> НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
<b>17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич</b> И.ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
<b>18. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
<b>19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna</b> O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
<b>20. Malika Soliyeva</b> INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
<b>21. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

<b>22. Xurinsa Xudoyberdiyeva</b> TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
<b>23. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
<b>24. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
<b>25. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
<b>26. Робиға Мамбетова</b> ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
<b>27. Ҳамидулла Годжиев</b> ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
<b>28. Ergashova Rano Turaevna</b> LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
<b>29. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
<b>30. Xalimova Firuza Rustamovna</b> POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
<b>31. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
<b>32. Матлуба Шукурова</b> ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
<b>33. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



**Xolova Muyassar Abdulhakimovna**  
filologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent  
Termiz davlat universiteti. xolovam@tesu.uz.

## **O‘ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O‘ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida)**

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087394>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati shevalari tarkibida kuzatiluvchi fonetik o‘zgarish, xususan, kombinator va pozitsion o‘zgarish xususida fikrlar bayon etilgan. Tadqiqot materiallari bo‘lib Boysun, Sherobod, Qumqo‘rg‘on kabi 12 ta tumanlardan yig‘ilgan <https://dialectcorpora.uz/#>, <https://dialect.uz/>, <https://arxiv.dialect.uz/> hamda <https://areal.dialect.uz/> kabi saytlardagi materiallar lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan va etnik aholi nutqiga tayangan holda tahlilga tortilgan. Tovushlarning bir-biriga ta‘sir o‘laroq yuzaga kelgan assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi, shu bilan bir qatorda, proteza, epiteza, spirantizatsiya, eliziya kabi kombinatsion o‘zgarishlarga ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, o‘zbek shevalarida hali kuzatilgan, biroq qayd etilmagan sirg‘aluvchi tovushning portlovchi tovushga aylanish eksplozitsiya uchrashi mumkinligi alohida ta‘kidlangan. Maqolada shevalardagi yuzaga kelgan fonetik hodisalar o‘zbek tilining fonologik tizimidagi areal xususiyatlarni ochib berish bilan birga, ularning ijtimoiy va tarixiy omillarga bog‘liq nuqtalariga ham to‘xtab o‘tilgan. Barcha fikrlar yuqorida qayd etilgan baza va korpus materiallari statistikasi bilan mustahkamlangan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek tili shevalari, fonetik o‘zgarish, kombinatsion va pozitsion o‘zgarish, epiteza, proteza, assimilyatsiya, sandxi hodisasi, eksplozitsiya

---

**Холова Муяссар Абдулхакимовна**  
Кандидат филологических наук (PhD), доцент  
Термезский государственный университет  
xolovam@tesu.uz

## **ФОНЕТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ДИАЛЕКТАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА (на примере Сурхандарьинской области)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье излагаются взгляды на фонетические изменения, наблюдаемые в диалектах Сурхандарьинской области, в частности, комбинаторные и позиционные изменения. Материалы исследования, собранные в 12 районах, таких как Байсунский, Шерабадский и Кумкурганский и из сайтов как <https://dialectcorpora.uz/#>, <https://dialect.uz/>, <https://arxiv.dialect.uz/> hamda <https://areal.dialect.uz/> были проанализированы с лингвистической точки зрения и на основе речи этнического населения. Были рассмотрены ассимиляция, диссимиляция, метатеза, а также комбинаторные изменения, такие как протез, эпитеза, спирантизация и элизиа, произошедшие в результате взаимодействия звуков, и было

подчеркнуто, что может иметь место превращение скользящего гласного в взрывной звук, что до сих пор не наблюдалось в узбекских диалектах. В статье раскрываются фонетические явления, возникшие в диалектах, а также ареальные особенности фонологической системы узбекского языка, а также затрагивается их связь с социально-историческими факторами. Все положения подкреплены статистикой вышеупомянутой базы данных и корпусными материалами.

**Ключевые слова:** узбекские диалекты, фонетические изменения, комбинационные и позиционные изменения, эпитеза, протез, ассимиляция, феномен сандхи, эксплозия

**Muyassar Kholova**

PhD in Philology, Associate Professor  
Termez State University  
xolovam@tesu.uz

## PHONETIC CHANGES IN UZBEK DIALECTS (BASED ON THE EXAMPLE OF THE SURKHANDARYA REGION)

### ANNOTATION

This article presents views on phonetic changes observed in the dialects of the Surkhandarya region, in particular combinatorial and positional changes. Research materials collected in 12 districts, such as Baysunsky, Sherabadsky, and Kumkurgan, and from websites such as <https://dialectcorpora.uz/#>, <https://dialect.uz/>, <https://arxiv.dialect.uz/> hamda <https://areal.dialect.uz/> were analyzed from a linguistic point of view and based on the speech of the ethnic population. Assimilation, dissimilation, metathesis, as well as combinatorial changes such as prosthesis, epithesis, spirantization, and elision, which occurred as a result of the interaction of sounds, and it was emphasized that the transformation of a gliding vowel into an explosive sound, which has not yet been observed in Uzbek dialects, may take place. The article reveals phonetic phenomena that have arisen in dialects, as well as areal features of the phonological system of the Uzbek language, and touches upon their connection with socio-historical factors. All statements are supported by statistics from the above-mentioned database and corpus materials.

**Keywords:** Uzbek dialects, phonetic changes, combinatorial and positional changes, epithet, prosthesis, assimilation, sandhi phenomenon, explosion


Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati shevalari tarkibida kuzatiluvchi fonetik o'zgarish, xususan, kombinator va pozitsion o'zgarish xususida fikrlar bayon etilgan. Tadqiqot materiallari bo'lib Boysun, Sherobod, Qumqo'rg'on kabi 12 ta tumanlardan yig'ilgan <https://dialectcorpora.uz/#>, <https://dialect.uz/>, <https://arxiv.dialect.uz/> hamda <https://areal.dialect.uz/> kabi saytlardagi materiallar lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan va etnik aholi nutqiga tayangan holda tahlilga tortilgan. Tovushlarning bir-biriga ta'siri o'laroq yuzaga kelgan assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi, shu bilan bir qatorda, proteza, epiteza, spirantizatsiya, eliziya kabi kombinatsion o'zgarishlarga ko'rib chiqilgan bo'lsa, o'zbek shevalarida hali kuzatilmagan sirg'aluvchining portlovchiga aylanish eksploziya uchrashi mumkinligi alohida ta'kidlangan. Maqolada shevalardagi yuzaga kelgan fonetik hodisalar o'zbek tilining fonologik tizimidagi areal xususiyatlarni ochib berish bilan birga, ularning ijtimoiy va tarixiy omillarga bog'liq nuqtalariga ham to'xtab o'tilgan. Barcha fikrlar yuqorida qayd etilgan baza va korpus materiallari statistikasi bilan mustahkamlangan.

Til shevasi munosabatining fonetik va fonologik xususiyatlari, tabiiy ikki tillilik, shuningdek, ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra tasniflangan nutq jamoalarining ayrim turlari fonetikaning yangi bo'limi, ya'ni ijtimoiy fonetikada o'rganiladi. Idiolektlar va dialekt so'zlovchilar tovushlari, ohanglari yoki ohanglari, so'zlari, shuningdek, iboralar va konstruksiyalar orqali fonetika, grammatik, leksik va stilistik xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Til va sheva talaffuzi o'rtasidagi farq funksional yondashuv mezoniga asoslanadi, bu esa nutqning fonetik tabiatiga asoslanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilda fonetik o'zgarishlar aksariyat holda imloviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Orfoepik o'zgarishlar esa morfologik tamoyillar asosida ish ko'radi. Biroq bu holat

nazariy dialektologiyada o‘zgacha tahlillanadi, ya’ni unga ko‘ra uch lahja: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi barchaida fonetik o‘zgarishlar ikki xil: kombinator va pozitsion o‘zgarishlarga bo‘lingan holda tadqiq etiladi. Dialeklarning tadqiqotiga hamda dialektologiya darsliklarida fonetik doiradagi o‘zgarishlar kombinator-pozitsion o‘zgarishlar sifatida barcha fonetik farqliklar qamrab olinadi, biroq ularning orasiga chegara qo‘yilmaganligining guvohi bo‘lindi. Biz esa kombinativ o‘zgarishlar tovushlarning o‘zaro nutqiy ta’siri va o‘rni bog‘liq yuzaga kelishini, pozitsion o‘zgarishlar esa tovushlarning tushishi, almashishi hamda ortishi bilan yuz beradi. Zero, biz bu kabi farqliklarni shevashunoslik doirasida o‘rganar ekanmiz, reallikdan chetlashish holatini ham inkor etmaslik joizdir.

**Surxondaryo viloyati shevalarida kombinator o‘zgarishlar.** Kombinator o‘zgarishlar - nutq oqimidagi tovushlar artikulyatsiyasining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan fonetik o‘zgarishlar hisoblanadi. Rus dialektologiyasida mazkur variantning paydo bo‘lishi uchun fonetik muhit lozimligini, masalan, с н е (uyquda) so‘zidagi yumshoq, tish va tilning bir-biriga tegishidan hosil bo‘lgan с tovushining ta’sirida н tovushining yumshoq talaffuz qilinishini misol qilib o‘tish mumkin. Kombinator tovushlar bir-biriga bevosita yoki bilvosita masofada bo‘lishi, o‘zari progressiv yoki regressiv, to‘liq-noto‘liq, kontakt va distant fonetik o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Prof. H.Jamolxonov ilmiy qarashlarida kombinator ottenka terminiga fonemaning so‘z tarkibidagi tovushlar ta’siridagi yuzaga kelgan ko‘rinishi deya baho beriladi. O‘zbek shevashunoslikda 1070 yillarda garchi keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tovushlar tarkibida mavjud kombinatsion yoki pozitsion o‘zgarishlarning aniq chegarasi qo‘yilmagan va bunga aholi o‘rtasidagi ijtimoiylashuv hamda uch lahjaga ega bo‘lgan o‘zbek shevalarining rang-barangligi sabab deb hisoblaymiz. 2010-2024 yillar oralig‘idagi tadqiqotlar ham ko‘zdan kechirilganda mazkur (kombinatsion va pozitsion) o‘zgarishlarga u qadar ham ko‘p e’tibor berilmaganligi yoki umumtahlillarga yo‘l qo‘yilganligini ko‘zdan kechirdik. Tovushlardagi kombinatsion o‘zgarishlarning sabablaridan biri ularning artikulyar aloqasi (ayniqsa, yonma-yon tovushlar) bo‘lib, buning natijasida tovushlar bir-biriga ta’sir qiladi: oldingi tovushning rekursiyasi (artikulyatsiyaning oxiri) ekskursiya bilan (boshlanishi bilan) o‘zaro ta’sir qiladi. tovushning sifat o‘zgarishiga olib keladigan keyingi tovushning artikulyatsiyasi. Kombinativ o‘zgarishlar orasida akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metateza kabi turlari farqlanadi. O‘zbek shevashunosligida tilning agglyutinativ tabiatidan kelib chiqib Surxondaryo viloyati shevalarining fonetik o‘zgarishlarni ushbu sxemada ko‘rish mumkin:



1-chizma. O‘zbek shevalarida aks etishi mumkin bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar

**Akkomodatsiya.** Unli va undosh tovushlar o'rtasida vujudga keladigan akkomodatsiya hodisasi bir tovush talaffuzining ikkinchi tovush talaffuziga moslashishidir. o', i, u indifferent unilari til orqa undoshlar bilan moslashadi. Bu unililar sayoz til orqa k va g tovushlariga yondosh yoki yaqin holatda kelganda ularga moslashib, oldingi qator tovushlarga tomon ishlaydi: kiyim ~ ki:im (ikkilamchi cho'ziqlikka bu yerda e'tibor qaratilmasligi so'raladi), sigir~sijir ~si:ir, ko'l ~köl. Misol: 1. Bir tāmān Säyxun, bir tāmān žäyxun, bir tarap köl, bir tarap chöl. 2. Šü älpäzda közlari süzilip, köngli büzilib turbedi, "Härmañ, bāxši bābā",- digän tävuš qulāyga ur(i)ldi. 3. Dömbra(s)i ni äldida äytaberdi: Har k(i)m uoz yelida bekdir, töradir, uoz yelida bek bälmgan öladir. Bolar yeldiñ färzantlari bätirlar. Közin wojip älišsajam koradr. Märt dunjäga kelgan turpāq zör bölar, Nāmart äjäq bāskan zamin šör bölar. Šörlük jeldiñ balalari bätirlar, jekki közi äččiq tur(i)p kor bolar. Shevalar korpusida kö bigrammasi vositasida köl, közlari, köngli kabi so'zlarda sayoz til orqa, portlovchi, jarangsiz undoshi ta'sirida unilarning ham unga moslashishini ko'rish mumkin. Shu hodisaning kö bigrammasi vositasida tahlili: ajratildi – 30 ta matn; topildi –10 matn; 10 ta matn ichida – 17 ta gap tarkibida. Aksincha, xuddi o'sha unililar chuqur til orqa q, x, g' tovushlari bilan yondosh kelganda, ularga moslashib, bir qadar til orqa holatga ega bo'ladi: qırq (qırq), bığın (biqın), qılıy (qiliq), yulām (g'ulom), uluy (ulug') qošša (qo'sha), qošqār (qo'chqor), xitāp (xitob). Shu hodisani qi bigrammasi vositasida tahlili: ajratildi – 30 ta matn; topildi –10 matn; 10 ta matn ichida – 35 ta gap tarkibida.

**Assimilyatsiya.** O'zbek dialektologiyasida hozirgi o'zbek adabiy tilde bo'lgani kabi assimilyatsiya hodisasi ikki undosh tovushning bir-biriga to'liq yoki qisman ta'siri doirasidagi nutqiy o'zgarishidir, albatta, mazkur jarayon nutqiy o'zgarishlar bo'lgani holida shevalarda to'liq o'z aksini topadi. : – tanglay (ad.t.)- tañnaj (shv.), mahkam (ad.t.)- mäkkäm (shv.); Surxondaryo viloyati shevalari tarkibida ushbu hodisani tadqiq qilinganda, assimilyatsiyaning 3 xil pozitsiyada hosil bo'lishi kuzatildi. 1. **Joylashish ketma-ketligiga ko'ra: progressiv** [oldingi konsonantning keyingi konsonantni to'liq yoki qisman o'zgartirishi] ketdik~kettig, oshdi~ ašti, gapni ~gäpti, toshning~täšdiñ, tanglay (ad.t.)- tañnaj (Surx. shv.); **regressiv** [shevadagi keyingi konsonant oldingi konsonantni o'ziga to'liq yoki qisman o'xshatilishi] ishchi~iççi, qoshchi~qoççi, mahkam~mäkkäm (shv.) (Surx. Bandixon shv.). S.Rahimov qipchoq lahjasida **b** undoshidan keyin kontakt va distant undoshlarning regressiv assimilyatsiyaga uchrashini ta'kidlaydi: minnäjäčikin (bunday), mäjram (bayram) va hokazo. 2. **O'xshashlik darajasiga ko'ra: to'liq** [yonma-yon kelgan konsonantlarning bir-biriga singib ketishi]: oldi ~ älli (Qarshi, Shahrisabz; Surx. vil.), suvni ~ **suvvi** (Toshk. Surx. vil.), jonlanish ~ **žallaniš**, senlar ~ **sellär** (Mang'it, Surx.vil.), ~ **säčči** (Tosh. vil.). Viloyatning "ž" hamda "j"lovchilari og'zaki nutqida **ld>ll, nd>nn, mb>mm, nl>nn, td>tt, nm>mm, st>ss, tl>ll** [progressiv] kabi assimilyatsiyaning to'liq variantlari borki, ular hozirda ham hudud shevasida mavjuddir: ällädi (ad.t. aldadi), sennän (ad.t. sendan), dümmä (ad.t. dumba), künnik (ad.t. kunlik [pul semasida]), ketti (ad.t. ketdi), keläppis (ad.t. kelyapmiz), dossar (ad.t. do'stlar), köllik (ad.t. ketlik). **To'liqsiz:** bunda old yoki orqa konsonantlar aynan bir-biriga singmaydi, balki artikulyatsiyasi, ovoz va shovqinlilik darajasida qisman o'xshash kuzatiladi hamda hudud shevasida **k>g:** oshgan ~ **äškän**, ishga ~ **iškä**, ketgan ~ **ketkän** (Surx. Boy. qr. lah.); **mn>md:** ozimdan~<sup>v</sup>**ozimnän** (Surx. vil.)~**özimnän** (Xorazm.), **pn>pt** ipni~**ipti** (Surx.)~ **ippi** (Tosh. to'l., asm.); **čd>chn:** sochni~ **sačdi** (Surx. vil.) (Tosh. vil.) **säčči** (Tosh. vil.); **j>g':** bog'lam~bajlam; **šk>sh:** kelishgan~kel'škän; **sk>sg:** keskän~kesgan; sk>sz: seskän~sezgan; shuningdek, **tk>tg, čk>chg, mn>md** kabi ass. hodisalarini ham kuzatiladi. M.: Älpämiš töräñ ketyäniyä žetä žildän ašti mämläkätin jegäsi Ultän täjya tijsän dövri-dävran sürsän gäpimya könsän azäñdi äčsän, här kimdän kešsän dep söräp türyända Äjbärčinnin bābäsiya bir söz äjtib türyän žerijdi: Närtäväyimdi ujmäjman, Qāra zūlpim tūjmājman. Kampir Zimrätkä särpä -pärpä qip peradi, vujija jönatadi. Shuningdek, oxirgi yillarda urbanizatsiya hamda texnologiyaning keskin rivojlanishi natijasida voha aholisi shevasining fonetik tarkibiyatida qarluq lahjasi elementlari ko'proq kuzatilishini e'tirof etish lozim. 3. **Tovushlar o'xshashligidagi masofaviy oraliq asosiga ko'ra** – bunda ketma-ket joylashgan tovushlarning o'zaro o'xshashligida old yoki orqa tovushlarning oraliq masofa asosiy planga chiqadi (qimilla shv.~qimirla-ad.t.) va aytish joizki, Surxondaryo viloyati shevalarida asosan kontakt assimilyatsiya noto'liq kechishi kuzatiladi: Jenäm äjtib bergiçijdi: Ürüš växtida bāväm rais boyanakän. Uni Mirzayev rais **dejišyanakän**. Ra:matli bāvämdiñ 13 ta xätini boyan. **Distant:** bir-biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning moslashuvi qarluq lahjalarida s // ch,

t // ĉ, s // š tovushlari bilan bog‘liq kuzatiladi. Mazkur hodisa voħa shevasida ham sanoqli leksemalarda kuzatiladi: ĉopĉimāq(shv.)~sakrab tushmoq, šešāmbā (shv.)~seshanba(ad.t.)

**Dissimilyatsiya** – o‘xshashning buzilishi, ya’ni assimilyatsiyaga qarama-qarshi bo‘lgan fonetik hodisa. Surxondaryo viloyati shevalarida o‘zbek shevalarida bo‘lgani kabi sonor tovushlariga ega bo‘lgan so‘zlar dissimilyatsiya hodisasiga uchraydi. misollar: zarar ~ zārāl, zārīl, intipaq, devor ~devāl/ duvāl (Surx. vil.: Sho‘r. tum., Qum. tum.). Kontekstda: Kelini jānā jerigā ājtipti: Jenañiz **bizdiñ** gapimizdi pājlajdi, išimga āralašadi” depti. Ūrūš vāxtida **bāvām** rais boyanakān.;

Dunyo diallektologiyasi manbalari (mas.,rus) ko‘zdan kechirilganda kombinator o‘zgarishlarga dissimilyatsiya haqida gap borara ekan, uning tarkibiga tovushlarning ortishi, o‘rin almashishi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni: diereza [tovush yoki bo‘g‘inning tushishi bo‘lip-ad.t. – bōp-shv. (qarluq), kelib ad.t. – kep-shv.]; gaplogiya [bir xil tarkibiy tavnologiya uchragan holatda tushish jarayoni: (minera(lo)logiya)]; epenteza [talaffuzda tovushning so‘z o‘rtasida ortirilishi kakao-ad.t. – kākāvā, sabr-ad.t. – savur-shv.]; fikr – pikir yoki proteza va metateza kabi fonetik o‘zgarishlarni kiritishgan.

**Metateza.** Leksema tarkibidagi undoshlarning o‘rin almashishi hisoblanadi. Asosan qipchoq lahjasida bu holat ko‘proq kuzatilishini ta’kidlangan, demak mazkur holatning Surx. vil. “ž”lovchi aholi o‘rtasida tarqalishi tabiiy.Masalan: qo‘shni~qoñši, qumursqa ~ qurmusqa (Xorazm), tekshir~teškir(Buxoro); **ry~jr:** qirg‘iy (ad.t.) - qijyir (shv.); **o‘a~ao:** no‘xat (ad.t.)- naxōt (shv.); **ao~āa:** shayton (ad.t.) – šājtān, (shv.); **pr~rp:** surpa (ad.t.) – surpā (shv.); **ln~nl:** la‘nat (ad.t.)- nā:lāt (shv.). Hudud fonetikasiga doir 1980-2010 yillar oralig‘ida kuzatilgan metateza hodisasining yr~jr:Sarjāp, pq~qp: qaqpāq; gr~rg: ograt; hn~hn: tāhnā, **žy~g‘j:** božyama va hokazolarning hozirda uchramasligini ta’kidlaymiz.

**Shevalar tarkibidagi pozitsion o‘zgarishlar.** Dunyo tilshunosligida pozitsion o‘zgarishlar - tovushlarning so‘zdagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar sifatida talqin etiladi, maxsus fonetik sharoitlar bilan bog‘liqlik (masalan, so‘z oxiridagi yoki urg‘usiz bo‘g‘indagi o‘rni b‘lān [bilan], kel‘lā [kelinglar])da tuhuntirib o‘tiladi hamda unli tovushlar ham, undosh tovushlar ham pozitsion o‘zgarishlarga uchraydi

**Reduksiya.** Prof. S.Ashirboyev ham tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishi deya mazkur hodisaga ta’rif beradi. Bu kabi o‘zgarishlar jahon tilshunosligining umumiy tamoyillari nuqtayi nazaridan olinganligini hisobga olsak, rus tilshunosligida uning unli va undosh tovushlarning orfoepik qisqarishi hamda pozitsiyasining pasayishi bilan bog‘langan. Hozirgi o‘zbek adabiy til me‘yoriga muvofiq aksariyat unlilar reduksiyaga uchrashini, shuningdek, bunda tovushlarning sifati va soni bilan bog‘liq yuzaga chiqishi mumkinligini ta’kidlash joiz. Reduksiyani belgilashda transkripsiyada ( ) yarim oy shaklidagi diakritik, prosodik belgidan foydalaniladi. M: kishi ~ k(i)ši (qarluq), sol. Sharif~ Šār(i)p [Surx.] ~ Šāri:p [Buxoro]. Kontekstda: Endi bi:r qāšiq āytip perasiz,- dep kul(i)p kelišājāpti. B(i)r qārasāñ, t(i)kiš qīladi, b(i)r qārasāñ, piširiq piširādi. Qāđim “ātkan zāmānda b(i)r ĉāldiñ Z(i)mrāt va Qimmat degan qīzi bār akan.

**Proteza/ epinteza/ epiteza.** (ortish bilan bog‘liq o‘zgarishlar) Dialektologiya fani doirasida ushbu fonetik hodisalarni bir jarayonda o‘rganish eng ma’quldir. Etiborlisi har uch hodisada proteza so‘z boshida, epinteza so‘z o‘rtasida, epiteza esa so‘z oxirida tovushning ortirilishidir. **Protezaga** misollar: hari: [qipchoq lah.]~ ari, hajvan [qipchoq] – ayvon, halis~olis (uzoq) va hokazo. M.: Ālpāmiš tōrāñ ketāñiyā žeti žildān āšdi māmlākātīñ JEGĀSI Ultāntājya tijsāñ dāvri-dāvran sūrsāñ gāpimya kōnsāñ azāñdi āĉsāñ, hār kimdān kešsāñ dep sōrāp tūryānda Ājbārĉinniñ bābāsiyā bir sōz ājtip tūryān žerijdi: Nārtāvāyimdi ujmajman,Qāra zūlpim tūmajmān.

1. qarluq-uyg‘ur | qo‘shiq | Armiya, 1975-2019 . (kuladi) (mojna istaroysa bes burug (shim)) āā JENDI, tāžik bogān, rūs tilini bilmagan kejin šūni ajtgāndā... (eee endi tojik bo‘gan, rus tilini bilmagan keyin shuni aytganda).

**Epinteza**ga misollar: samsa ~ sāmbōsā [Buxoro], cho‘chimoq~ĉorĉi:maq [Xorazm]; duvĉar[qipchoq]-duchor, nejĉā[qipchoq]-necha va hokazo.

qipchoq | suhbat-voqeali | ĉeĉā (Checha), 2023-2024. Dajim bārsaqa, āĉiq žūz minān kūtīp alādi. qipchoq | intervyyu | Qarisi bor uyding parisi bar, 2023-2023 Āmma būniñ toyrı pikir ekānligini tūšūnādi.

**Epiteza.** Mazkur hodisa keksalar tilida o‘zlashmalarni talaffuz qilish bilan bog‘liq yuzaga chiqadi: bank~bānkā, tank~tānkā, otpusk~āppūskā Shevalar tarkibida ga misollar: Hājjareeeeeeeee, Būlbūl gūlgā qonadi, Hālini bilgān dōnādī. Xudāj sālyan išyāje, Bāndā bir kūn kōnādī.

**Prokopa/ sinkopa/apakopa. Prokopa** (ankopa) o‘zak- negiz yoki affiks boshidagi undosh tovushlar tushadi: shisha – išā, hisob – isāp, bizar-bizlār (Qashqadaryo.Uzun tum.); qipchoq | suhbat-voqeali | Tojya kim barayaji (To‘yga kim boradi), 2023-2024. Bārasama desām “žōq dūgān bāralmiymān qājnanam rū:sat bermadi”- dijdī. Umidaya bārasama desām u bōsā” jer(i)m ruxsat bermādī, ketsām **isāp** beramijmān” - dijdī. **Sinkopa** yunoncha συγκοπή – tushish degan ma‘noni anglatib, shevashunoslikda dialektlar tarkibida so‘z o‘rtasida unli yoki undosh tovush tushishidir. M: yupqa – žuqa, qi[li]b (ad.t)- qīb (shv.), key[i]n+i(eg. qo‘sh.)~kejni. M: Kejn Z(i)mrātti tājlap kelādi örmānya. Kejn örmāndīñ içidan b(i)r māma çiyīp qāladi: “ādašip qāldīñba qīzijān, nima berda wotirpsān? Žūr, menikida žūrāsāñ, išimdi qīlasāñ”,- dijdī.; **Apakopa/ anakopa** dialektologiyada so‘z oxiridagi undoshning tushib qolishiga nisbatan qo‘llanadi: gunā-gunoh, g(i)jā-giyoh, pās-past, tārādi- taraddud; chumal// Shu o‘rinda qayd etish lozimki, bu hodisalarni eliziya yoki aferezisdan farqlamoq joiz, mazkur fonetik o‘zgarish ko‘proq leksemaning grammatik vositalardan xoliligida yoki yuqoridagi ikki holatda qisqarish yoki urg‘usizlantirish ko‘makchi qismiga tegishli bo‘ladi.

**Sandhi hodisasi** (analitik shakllarning sintaktik shaklga o‘tishi). Tovush o‘zgarishi ikki so‘zning tutashgan joyida vujudga keladigan fonetik hodisadir. H.Jamolxonov sandhi hodisasi: “Analitik shaklning ixchamlashuvi”, - deya ta‘rif beradi. Masalan, hōyrāmboldim ~ hayron bo‘ldim, bolōgādām - bolak odam, āltājyachā ~ olti oygacha, jekqolini ~ ikki qo‘lini. Kontektda: qipchoq | suhbat-voqeali | Urush vaqtida rais bobo, 1941-1945. Sōyin ātālāfrānt boyan ādamlardīñ ölmāsīčūn kāttā QARAQĀZANDĀ ātālā piširip beraberyān. qipchoq | ertak | Ūčar gilam (Uchar gilam), 2023-2024. Bir bārakān bir ŽÖYAKĀN. İlgari zāmānda bir čāl bilān bir kāmpir bārakān. **Eliziya.** Jahon dialektologiyasida lotincha ēlīsīō so‘zidan olingan bo‘lib, so‘z o‘zak-negizi unli bilan tugaganda unli bilan boshlanuvchi da (alohida talaffuz qilinadigan o‘zak-negizlarda): o‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda o‘zak so‘zning oxiridagi unli tovush tushadi. ālti+āv- āltāv// ad.-orf. oltov, iki+āv- ikāv// ad.-orf. ikkov; dialektologiyada eliziya bilan bo‘g‘liq o‘zak- negiz yoki affiks boshidagi undosh tovushlar tushishi. masalan, shishā-išā, bizār-bizlār, tārādi- tārāddud; so‘z o‘rtasida undosh tovush tushadi. djupqa – djuqa (yupqa), ottiz-otiz (o‘ttiz); o‘zak-negiz yoki affiks oxirida undosh tovushlar tushib qoladi: gunā- gunoh, giyā-g‘yāh, pās-pāst kabilarni ham eliziya tarkibida o‘rganish mumkin deyilgan qarashlar bor. Biroq lingvistikaning boshqa sohalari rivojlanayotgan ekan, dialektologiyada fonetik o‘zgarishlarning bu kabi chegaralarni qo‘yish kerak deb hisoblaymiz.

**Spirantizatsiya va eksplozitsiya.** Spirantizatsiya biror portlovchi undosh tovushning portlovchilik xususiyatini yo‘qotib, sirg‘aluvchi tovushga o‘tishidir. Ushbu fonetik hodisaning ko‘proq qipchoq lahjasida uchratish mumkin. jl. yubordi~žūvardi// choy - šaj ~ šāj, yolbars ~ žolvars, žuvārdi. Albatta, bu fonetik o‘zgarishlar umumlingvistik hamda umumdialektologik tamoyillar bilan bog‘liq. Biroq o‘zbek tili shevalarining tabiatidan kelib chiqib aytish joizki, lahjalarimizda sirg‘aluvchining portlovchiga o‘tish jarayoni bilan holatlar ham kuzatiladi va dunyo lingvistikasida eksplozitsiya atamasi bilan beriladi. **eksplozitsiya** fr. explosion – portlash degan ma‘noni anglatib, lahjalar tarkibida sirg‘aluvchining portlovchilik xususiyatiga o‘tishiga nisbatan qo‘llanadi. M: Avaxxon shoshganidan Majnun-ko‘kni to‘rBasi bilan minib, izidan quvib ketdi [200], Qo‘raga kelib bosh urdi, toBonini tosh urdi [223]; Befarzandning bag‘ri bo‘ladi kaVob, So‘z aytmoqlik otaga bo‘ladi savob. [235], Baland tog‘lar tavriga Yerlar titrar joVriga...[258. “Malla savdogar”dostonidan];

Xulosa shuki, biz maqolamizda Surxondaryo viloyati shevalaridagi fonetik o‘zgarishlarning tizimli tahlil qilishga harakat qildik va ularning kombinator va pozitsion shaklda namoyon bo‘lishiga guvoh bo‘ldik. Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo shevalarida assimilyatsiyaning barcha turlari (toshning~tāšdīñ, suvni ~ suvvi, oshgan ~ **āškān**) kuzatilishida shahar shevalarining ta‘siri bo‘lganligini, dissimilyatsiya (zarar ~ zārāl, zārīl, intipaq, devor ~devāl/ duvāl) hodisasining aksariyat qishloq zonalarida saqlanganligini, metatezaning hudud fonetikasiga doir 1980-2010 yillar oralig‘ida kuzatilgan metateza hodisasining sarjāp, qaqpq; ograt; tāhnā, božyama va hokazolarning hozirda uchramasligiga guvoh bo‘ldik. Bundan tashqari proteza, epiteza, epinteza, spirantizatsiya,

sandxi, eksplozitsiya kabi affikslarning va so‘zlarning yaxlitlanishi ta’sirida ro‘y berishini aniqladik. Surxondaryo shevalarida boshqa tillardan o‘zlashgan leksemalar tarkibida eksplozitsiya hodisasi: **tovon~tabān** (sirg‘aluvchi tovusning portlovchi tovushga aylanish) ko‘plab uchrashini biroq o‘zbek tili shevalariga oid adabiyotlarda alohida terminologik nuqtayi nazardan e’tibor qilinmaganligini alohida ta’kidlaymiz.

#### FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmurodova M. Phonetic features of english dialects. Journal Article: American Journal of Philological Sciences. DOI:10.37547. Vol. 4. IS. 04-08. 2024. P.
2. Reshetov, V.V., Shoabdurahmonov, S. (1978). O‘zbek dialektologiyasi. Toshket, B.134. B.lar. 277.
3. Rahimov S. O‘zbek tili Surxondariyo shevalari. Toshkent, Fan. 1985. B.47. B.lar. 96.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi //Toshkent: Nodirabegim. – 2021.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, Navro‘z. 2016. B.23. B.lar. 137.
6. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.
7. Rahimov. S.Surxondaryo viloyati shevalari. Monografiya. Fan. T.: 1985. B.49. B.lar.96.
8. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – T. 1. – №. 1.
9. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2005 y.
10. Kholova, Muyassar. DialectCorpora.uz: O‘zbek dialektal matnlar korpusi. 2023–2024, <https://dialectcorpora.uz/>.
11. Kholova, Muyassar. Dialect.uz: O‘zbek shevalari portali. 2021–2024, <https://dialect.uz/>.
12. Kholova, Muyassar. DialectArxiv.uz: Dialektal materiallar arxivi. 2023–2024, <https://arxiv.dialect.uz/>.
13. Kholova, Muyassar. Areal Dialect.uz: Dialektal xaritalar tizimi. 2022–2024, <https://areal.dialect.uz/>.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000